



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 10

YOSH BOLALIK DAVRIDA ERTA TA'LIM VA UNING AHAMIYATI

Mamatqulova Sevinch Mirzoyevna

*Samarqand davlat chet tillar instituti
talabasi*

sevinchmamatqulova905@gmail.com

Ilmiy rahbar: Zubaydova Nilufar

Nematullayevna

*Samarqand davlat chet tillar instituti
o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada yosh bolalik davrida erta ta'limning ahamiyati va uning bolalarning aqliy va hissiy rivoj topishidagi o'rni ko'rib chiqiladi. Maqolada erta ta'limning bolalarning hissiy, ijtimoiy va akademik rivojlanishiga qanday ta'sir ko'rsatishi, shuningdek, oila va jamiyatdagi tutgan ahamiyati tahlil qilinadi. Yosh bolalik davrida olingan ta'limga ko'nikmalari bolalarning kelajakdagi muvaffaqiyati uchun asosiy tayyorgarlik sifatida e'tirof etiladi. Shuningdek, erta ta'limga jarayonining bolalarga taqdim etgan imkoniyatlari va ularning shaxs sifatida shakllanishiga bo'lgan ta'siri haqida fikrlar yuritiladi. Maqola ota-onalar va pedagoglar uchun erta ta'limning zarurligini ta'kidlab, yosh avlodning muvaffaqiyatli rivojlanishi uchun zaruriy qadamlarni ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: erta ta'limga, yosh bolalik davrida rivojlanish, hissiy rivojlanish, akademik muvaffaqiyat, kelajakdagi muvaffaqiyat.

Kirish

Inson hayoti davomida eng unumli vaqt bu bolalik davridir. Bu davrda bola yangi ko'nikmalarni o'zlashtirib, dunyoqarashini shakllantiradi. Erta ta'limga esa, ayniqsa, bolaning psixologiyasi va intellektual rivojlanishi uchun juda muhimdir. Erta ta'limga orqali bolalar o'zlariga o'zini bilish, ijtimoiy hayotda muvaffaqiyatli bo'lish uchun zarur bo'lgan asosiy ko'nikmalarni egallaydilar. Shuningdek, erta ta'limga avlodlarni intellektual va axloqiy jihatdan rivojlantirishni maqsad qilish bilan birga, mamlakatlar taraqqiyotida ham muhim rol o'yнaydi. Ushbu maqolamizda erta ta'limning ahamiyati va uning bolalarning kelajakdagi hayotida qanday ta'sir ko'rsatishi haqida batafsil to'xtalamiz.

Asosiy qism

Erta ta'limga, ya'ni bolaning 3-6 yoshgacha bo'lgan davrda beriladigan ta'limga, uning kelajakdagi hayoti, shaxsiyati va ijtimoiy moslashuvi uchun muhim ahamiyat kasb etadi. Bu davrda inson kelajakda qiladigan ishlariga poydevor quradi, hamda insonning kelajakdagi ta'limga turtki bo'lib xizmat qiladi.

Rivojlanish jarayonida ahamiyati.

Bolalik davrida erta ta'limning eng muhim jihatlaridan biri, bu bolaning miyaning intensiv rivojlanishi bilan bog'liq. Bu davrda miya tuzilmalari va nerv



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 10

tizimining asosiy shakllanish jarayonlari davom etadi. Erta ta'lim dasturlari, bolalarning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, va ijodkorlik ko'nikmalarini shakllantirishga yordam beradi.

Sosial va hissiy rivojlanish.

Bolalar erta ta'lim muassasalari orqali o'zaro muloqot qilishni o'rganishadi. Ular do'stlar bilan ishlash, birgalikda o'yin o'ynash va hissiyotlarni ifodalashni o'rganadilar. Bu ijtimoiy ko'nikmalar kelajakda mehnat bozorida muvaffaqiyatli bo'lishi uchun zarurdir. Shuningdek, erta ta'lim bolaning o'zini his qilishiga, o'ziga bo'lган ishonchini oshirishga va hissiy barqarorligini ta'minlashga yordam beradi.

Akademik tayyorgarlik.

Erta ta'lim bolalarga asosiy bilimlarni, jumladan o'qish, yozish va matematik ko'nikmalarni o'zlashtirishga yordam beradi. Maktabda o'qishda muvaffaqiyatli bo'lish, ko'pincha erta ta'lim jarayonida olingan bilimlarga bog'liq. Erta ta'limdagi o'yinlar, tadbirlar va faoliyatlar bolalarning o'ziga xos fikrlash qobiliyatlarini rivojlantiradi.

Oila va jamiyatdagi roli.

Ota-onalar va pedagoglar bolalarning erta ta'lim jarayonida muhim rol o'ynaydilar. Oila muhitida taqdim etiladigan qo'llab-quvvatlash va mehr-muhabbat bolalarning o'ziga bo'lган ishonchini oshiradi. Shuningdek, jamiyatda erta ta'limga berilgan ahamiyat, bolaning kelajakda muvaffaqiyatli shaxs bo'lishiga ta'sir ko'rsatadi.

Uzlusizlik va rivojlanish.

Erta ta'lim dasturlari uzlusiz ta'limning birinchi shtabidagi asosiy qismidir. Bu ta'lim jarayoni bolaning kelajakda o'z ta'limini davom ettirishga, o'zining qiziqishlarini rivojlantirishga va kasbiy qarorlar qabul qilishiga tayyorlaydi.

Xulosa

Xulosa keltiradigan bo'lsam, yosh bolalik davrida erta ta'lim nafaqat bilim, balki shaxsiy sifatlarning rivojlanishida muhim rol o'ynaydi. Bolalarda hissiy barqarorlik, ijtimoiy ko'nikmalar va akademik tayyorgarlikni mustahkamlash orqali, biz kelajak avlodni yanada muvaffaqiyatli va farovon hayotga tayyorlaymiz. Shu sababli, erta ta'limga investitsiya kiritish, jamiyatimizning kelajagi uchun juda muhimdir.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. D Nu'Manova, U Qo'Ziyev, Badiiy matnni lingvostatistik tomondan tahlil qilish, Oriental Art and Culture, 119-121, 2020.



THE ROLE OF EXACT SCIENCES IN THE ERA OF MODERN DEVELOPMENT

REPUBLICAN SCIENTIFIC AND PRACTICAL CONFERENCE



Volume: 2 Issue: 10

2. GU Rustamova, Lingvistik Pragmatikaning Birliklari, Филологические науки 11, 0.
3. MA Ubaydullaeva, The History of the Development of the Terms of Literary Studies of the Turkic Peoples, Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences 2 ..., 2022.
4. N Dedamirzayeva, U Kuziyev, Teaching English to young learners through games, Oriental Art and Culture, 86-88, 2020.
5. U Kuziev, SY Aslanova, Dictionaries Compiled Based on Navoi's Works, Scientific Bulletin of Namangan State University 1 (6), 319-326, 2019.
6. U Qo'ziyev, Tilda Soflik Masalasi, Ta'limda Turkiy Xalqlar Milliy Mentalitetini Mustahkamlashning Dolzarb ..., 2022.
7. UM Azamatovna, The History Of The Development Of The Terms Of Literary Studies Of The Turkic Peoples.
8. UY Kuziev, The issue of classification and description of complex structural compounds in uzbek language, Int J Eval & Res Educ 99 (4), 309-314, 2023.
9. Н Сулейманова, Тил Белгиларининг Нутқа Кўчирилиши.
10. Н. М Сулейманова, О Структурной Схеме Номинативного Значения, Ученый XXI века, 2016.
11. НМ Сулейманова, АРЎ Идиев, Макрономинатив Маъно Ортида Макропропозитив Структура Ҳақида, Academic research in educational sciences 2 (4), 798-802, 2021.
12. НМ Сулейманова, ЖР Насруллаев, Номинативные особенности языковых единиц, Молодой ученый, 212-213, 2018.
13. НМ Сулейманова, ЖР Насруллаев, Номинативные особенности языковых единиц, Молодой ученый, 212-213, 2018.